INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

MA'MURIY SUDLARGA TEGISHLILIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI (O'RTA BO'GIN MISOLIDA)

Saparbayev Jaloliddin Muhammadjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akdemiyasi magistranti
Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha
Chilonzor tuman sudi sudya yordamchisi
Email-Jaloliddin2399@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'muriy nizolarning sudlovga tegishliligi tushunchasi, uning huquqiy mohiyati va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Ma'muriy sudlovga tegishlilik institutining fuqarolik, iqtisodiy protsesdan farqli va o'ziga xos xususiyatlari yoritilib, ma'muriy ishlarni tegishlilik mezonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sudlovga tegishlilikni aniqlashda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy jihatdan qiyosiy o'rganilga holda milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurati asoslantiriladi. Maqola doirasida milliy qonunchilik hamda sud amaliyoti misolida ushbu institutning dolzarb jihatlari ochib beriladi. Shu bilan birga ma'muriy nizolarning sudga tegishliligi yzuasidan milliy qonunchilkni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar. sudlovga tegishlilik, yurisdiksiya, sud vakolati, ma'muriy protsess, fuqarolik protsessi, iqtisodiy sudlar, hududiy tegishlilik, predmet bo'yicha tegishlilik, sud amaliyoti, huquqiy tartibga solish.

Kirish. Ma'lum bir nizoli ish ma'muriy sudga taalluqli deb topilganidan keyin, navbatdagi muhim masalalardan biri albatta — ushbu niozni aynan qaysi sud bo'g'ini ko'rib chiqishi lozimligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Ya'ni, ish tumanlararo ma'muriy sud tomonidan ko'riladimi, viloyat darajasidagi sud tomonidan ko'rib chiqiladimi yoki u bevosita yuqori instansiya — Oliy sud tomonidan ko'rib chiqilishi kerakmi, degan savol huquqni qo'llash amaliyotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sud organlari o'rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanganligi fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari, hamda qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi kunda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq hamda manfaatlarini samarali himoya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan sud nazoratini ta'minlashda ma'muriy sudlarning o'rni beqiyosdir. Shu bilan birga, sudga murojaat etilgan har bir ishning to'g'ri va vakolatli sud tomonidan ko'rib chiqilishi odil sudlovning muhim sharti hisoblanadi.

Asosiy qism. Mazkur jarayon huquqshunoslikda "sudlovga tegishlilik" tushunchasi bilan ifodalanadi. Sudlovga tegishlilik — bu muayyan ishni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan sudni aniqlashga qaratilgan huquqiy mexanizm bo'lib, u sud tizimining ichki tuzilishi va instansiyaviy bo'linishiga asoslanadi. Ushbu institut orqali nizolarni to'g'ri sudga yo'naltirish, ortiqcha protsessual xatolarning oldini olish hamda ishlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish imkoniyati yaratiladi.

Amaliyotda esa sudlovga tegishlilikni noto'g'ri belgilash turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, ishning noto'g'ri sudga yuborilishi uning qayta taqsimlanishiga, vaqtning cho'zilishiga, ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishiga hamda taraflarning sudga bo'lgan ishonchi pasayishiga sabab bo'ladi. Shu bois, sudlovga tegishlilik masalasini aniqlash nafaqat protsessual talab, balki odil sudlovni ta'minlashning muhim kafolatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada ma'muriy sudlar tizimida sudlovga tegishlilikning nazariy-huquqiy asoslari, uni belgilash mezonlari hamda amaliyotda uchraydigan muammolar tahlil qilinadi.

MSIYtK 28-moddasiga ko'ra, sudga taalluqli ishlar tumanlararo ma'muriy sudlar tomonidan ko'riladi, bundan Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi sudloviga tegishli ishlar mustasno[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.2020-yildagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–6034-son Farmoniga ko'ra, investitsiya nizolari bo'yicha yirik investorning, raqobat to'g'risidagi ishlar bo'yicha tomonlarning xohishiga ko'ra ushbu toifadagi ishlar bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan, qolgan investisiyaviy nizolar investorning xohishiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida ko'rib chiqiladi. Sudlov tarkibiga investitsiya kiritilgan sanada **yigirma million AQSh dollari** ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda investitsiyani amalga oshirgan jismoniy yoki yuridik shaxslar va davlat organlari o'rtasida yuzaga keladigan investisiyaviy nizolar hamda raqobatga oid ishlarni ko'rish vakolati berilgan[2].

MSIYtK 29-moddasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari birinchi instansiya sudi sifatida davlat sirlari bilan bog'liq ishlarni ko'radi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari alohida holatlarga qarab, har qanday ishni tumanlararo ma'muriy suddan olib qo'yishga va uni birinchi instansiya bo'yicha o'zining ish yurituviga qabul qilishga, ishni bir suddan boshqasiga o'tkazishga haqli. MSIYtK 29-moddasida belgilangan mazkur norma ma'muriy sudlar tizimida ishlarni ko'rish vakolatini moslashuvchan va samarali tashkil etishga qaratilgan muhim protsessual mexanizm hisoblanadi. Ushbu modda mazmuniga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlariga birinchi instansiya sudi sifatida ayrim toifadagi ishlarni, xususan davlat sirlari bilan bog'liq nizolarni ko'rish vakolati berilgan. Bu esa, avvalo, bunday ishlarning o'ziga xos murakkabligi, maxfiylik darajasi va ularni ko'rib chiqishda yuqori darajadagi ehtiyotkorlik hamda tajriba talab etilishi bilan izohlanadi. Mazkur qoida orqali qonun chiqaruvchi organ bir necha maqsadlarni ko'zlagan.

Birinchidan, davlat sirlariga oid ma'lumotlarning oshkor bo'lish xavfini kamaytirish, ya'ni bunday ishlarni ko'rish doirasini nisbatan toraytirish orqali maxfiylikni ta'minlash.

Ikkinchidan, murakkab va ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda yuqori malakali sudyalar ishtirokini ta'minlash. Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar odatda tajribaliroq sudyalar tarkibiga ega bo'lgani sababli, bu yerda chiqarilgan qarorlarning sifati va asoslanganlik darajasi yuqori bo'lishi kutiladi.

Shu bilan birga, moddaning ikkinchi qismida mazkur sudlarga har qanday ishni tumanlararo ma'muriy suddan olib qo'yish va uni o'z ish yurituviga qabul qilish huquqi berilganligi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Bu norma sudlovga tegishlilik institutining qat'iy emas, balki muayyan darajada moslashuvchan ekanligini ko'rsatadi.

Amaliyotda ayrim ishlar dastlab soddaroq deb baholanib, quyi instansiya sudiga yuborilishi mumkin, biroq keyinchalik ishning murakkabligi, katta miqdordagi manfaatlar to'qnashuvi yoki

[1] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 03/26/1117/0116-son

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.07.2020 yildagi PF-6034-son

muhim huquqiy masalalarning mavjudligi aniqlanishi mumkin. Bunday holatda yuqori turuvchi sud ishni o‘z yurituviga olish orqali protsessni tezlashtiradi va sifatli hal etilishini ta’minlaydi. Masalan, amaliyotda ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlarining individual-huquqiy hujjatlari yoki yirik investitsiya loyihalariga taalluqli qarorlari ustidan berilgan shikoyatlar dastlab tumanlararo ma’muriy sudlarga taqdim etiladi. Biroq ish materiallari o‘rganilgach, mazkur nizo keng doiradagi shaxslar manfaatiga daxldor ekani, murakkab iqtisodiy va huquqiy tahlilni talab qilishi aniqlansa, viloyat ma’muriy sudi uni o‘z ish yurituviga olishi mumkin. Yoki davlat siriga daxldor bo‘lgan, masalan, mudofaa yoki strategik infratuzilma obyektlariga oid qarorlar ustidan nizolar bevosita viloyat darajasidagi sudlarda ko‘rib chiqiladi. Shunday qilib, MSIYtK 29-moddasida nazarda tutilgan qoidalar sudlovga tegishlilikni aniqlashda nafaqat qat’iy yurisdiksiya mezonlarini, balki ishning xususiyatidan kelib chiqadigan moslashuvchan yondashuvni ham nazarda tutadi. Bu esa, o‘z navbatida, ma’muriy sud ish yurituvining samaradorligi va adolatliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Sudlovga tegishlilik institutini chuqurroq anglash uchun nafaqat milliy qonunchilik normalarini, balki ushbu masala yuzasidan o‘zbek va xorijiy huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlarini ham tahlil qilish muhimdir. Zero, sudlovga tegishlilik — bu faqat protsessual masala bo‘lib qolmay, balki odil sudlovning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Y.Saidazimovning ta’kidlashicha, sudlovga tegishlilik institutining asosiy vazifasi — ishlarni sudlar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlash orqali ortiqcha protsessual to‘siqlarni bartaraf etish va fuqarolarning sudga bo‘lgan murojaatini yengillashtirishdan iborat[3]. Haqiqatdan ham ma’muriy sud ish yurituvida tegishlilikni to‘g‘ri belgilash davlat organlari faoliyati ustidan samarali sud nazoratini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki noto‘g‘ri aniqlangan tegishlilik natijasida fuqaro yoki tadbirkor bir necha bor sudlarga murojaat qilishga majbur bo‘lishi, bu esa ularning huquqlarini himoya qilish jarayonini cho‘zib yuborishi mumkin.

Xorijiy olimlar, xususan kontinental huquq tizimi vakillari ham yurisdiksiya (tegishlilik) masalasiga alohida e’tibor qaratadilar. Ularning ilmiy qarashlarida sudlovga tegishlilik “tabiiy sud prinsipi” bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi[4]. Mazkur prinsipga ko‘ra, har bir shaxs uning ishi oldindan qonun bilan belgilangan, mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishiga haqli. Shu bois, sudlovga tegishlilik qoidalari aniq va tushunarli bo‘lishi, shuningdek, asossiz ravishda o‘zgartirilmasligi lozim.

Shu bilan birga, ayrim xorijiy tajribalarda, masalan, ma’muriy sudlar rivojlangan davlatlarda (Germaniya, Avstrya, Fransiya), yuqori turuvchi sudlarga ishni o‘z yurituviga olish vakolati berilganligi kuzatiladi. Bu holat, ayniqsa, murakkab, katta ijtimoiy ahamiyatga ega ishlarni tezkor va sifatli ko‘rib chiqish zarurati bilan izohlanadi. Ushbu yondashuv MSIYtK 29-moddasida belgilangan normalar bilan ma’lum darajada uyg‘un ekanligini ko‘rish mumkin.

Amaliyot tahlili ham shuni ko‘rsatadiki, sudlovga tegishlilikni moslashuvchan tarzda qo‘llash ayrim murakkab nizolarni hal etishda ijobiy natija beradi. Masalan, xorijiy tajribada yirik investitsiya loyihalari, ekologik nizolar yoki davlat siyosatiga daxldor qarorlar yuzasidan kelib chiqadigan ishlar ko‘pincha yuqori instansiya sudlari tomonidan birinchi bosqichdayoq

---

[3] Y.Saidazimov: “Maʾmuriy hujjatni o‘zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning huquqiy asoslarini takomillashtirish” dissertatsiya. Toshkent 2025.

[4] Женетль С.З.; Административный процесс и административные процедуры в условиях административной реформы ГОУВПО Российская правовая академия Министерства юстиции Российской Федерации. — Москва, 2008. — 536 с.

ko‘rib chiqiladi. Bu esa bir tomondan ishni tezlashtirsa, ikkinchi tomondan turli instansiyalarda qarorlarning turlicha talqin qilinishining oldini oladi.

Xorij va o‘zbek olimlarning qarashlari hamda sud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, sudlovga tegishlilik institutini qat’iy va bir vaqtning o‘zida moslashuvchan mexanizm sifatida qo‘llash eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Bu esa MSIYtK 29-moddasida nazarda tutilgan qoidalarning ilmiy va amaliy jihatdan asoslanganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur masalalar tahlilidan kelib chiqib, sudlovga tegishlilik institutini yanada takomillashtirish yuzasidan bir qator dolzarb takliflar va tavsiyalarni ilgari surishimiz mumkin.

Birinchidan, sudlovga tegishlilik mezonlarini yanada aniq va batafsil belgilash maqsadga muvofiq. Amaldagi tartibda ayrim holatlarda ishning qaysi sud tomonidan ko‘rib chiqilishi lozimligi yuzasidan turlicha talqinlar paydo bo‘lishi mumkin. Shu bois, ayniqsa ma’muriy nizolarning murakkab toifalari (masalan, investitsiya) bo‘yicha alohida va aniq yurisdiksiya qoidalarini ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, yuqori turuvchi sudlarning ishni quyi suddan olib qo‘yish vakolatini qo‘llash asoslari va tartibini yanada konkretlashtirish lozim. Hozirgi kunda bu vakolat nisbatan umumiy ifodalangan bo‘lib, amaliyotda uni qo‘llashda subyektiv yondashuv ehtimolini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, qaysi holatlarda ish yuqori instansiyaga olinishi mumkinligi (ishning murakkabligi, jamoat ahamiyati, yagona sud amaliyotini shakllantirish zarurati va boshqalar) qonunchilikda aniq mezonlar asosida belgilab qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, sudlar o‘rtasida ishlarni o‘tkazish (transfer qilish) mexanizmini soddalashtirish va tezlashtirish zarur. Amaliyotda ishlarning bir suddan boshqasiga yuborilishi ko‘pincha ortiqcha vaqt yo‘qotilishiga olib keladi. Shu bois, bu jarayonni raqamlashtirish, ya’ni elektron sud tizimlari orqali tezkor amalga oshirish mexanizmlarini keng joriy etish sud ish yurituvining samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, sudlovga tegishlilik masalasida sud amaliyotini umumlashtirish va muntazam ravishda tushuntirish berib borish tizimini kuchaytirish lozim. Yuqori sud instansiyalari tomonidan beriladigan plenum qarorlari yoki sharhlar orqali quyi sudlar uchun yagona yondashuvni shakllantirish sud xatolarining oldini olishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun sudlovga tegishlilik masalasida tushunarli axborot resurslarini yaratish zarur. Ko‘plab murojaatchilar aynan qaysi sudga murojaat qilish kerakligini bilmaganligi sababli vaqt va resurslarini yo‘qotmoqda. Shu nuqtai nazardan, interaktiv yo‘riqnomalar yoki onlayn platformalar orqali tegishli sudni aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yuoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, sudlovga tegishlilik institutini takomillashtirishga qaratilgan ushbu takliflar ma’muriy sud ish yurituvining aniqligi, tezkorligi va adolatliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Allgemeines Verwaltungsrecht/von Jörn Ipsen. Berlin, 2000. (General administrative law / by Jörn Ipsen. Berlin, 2000)

2. Maurer H. Allgemeines Verwaltungsrecht. 15. Auflage. München, 2008. (Maurer H. General administrative Law. 15th Edition. Munhen, 2008.)

3. Peine F.-J. Allgemeines Verwaltungsrecht, 9. Auflage. Verlag C. F. Mueller, 2008. (Peine F.-J. General Administrative Law, 9th edition. Verlag C. F. Mueller, 2008)

4. Wolff H. J., Bachof O., Stober R. Verwaltungsrecht I. 6. Auflage. München, 2000.(Wolff H. J., Bachof O., Stober R. Administrative Law I. 6th edition. Munich, 2000)

5.Bundesverfassungsgericht//Neue Juristische Wochenschrift. 1987. 2501(Bundesverfassungsgericht // Neue Juristische Wochenschrift. 1987. 2501)

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index:* *google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

6. Bundesverfassungsgerichsentscheidung. 19. 68. (Federal Constitutional Court decision. 19. 68.)

7. Bundesgerichtshof // Neue Juristische Wochenschrift. 1987. 1945. (Federal Court of Justice // New legal weekly. 1987. 1945.)

8. Verwaltungsgerichtshof Baden-Wuertenberg // Neue Zeitschrift fuer Verwaltungsrecht. 1987. 431f. (Administrative Court of Baden-Wuertenberg // New journal for administrative law. 1987. 431f.)

9. Oberverwaltungsgericht Nordrhein Westfalen//Oberverwaltungsgerichtsen scheidungen. 16. 289.(Higher Administrative Court of North Rhine-Westphalia // Higher Administrative Court decisions. 16. 289.)

10. Saidazimov Y. Teoreticheskiy i pravovoy analiz administrativnix dokumentov [Theoretical and legal analysis of administrative documents]. Review of law sciences, 2020, no. 3, Spec. iss., pp. 19–24. DOI: 10.24412/2181-919X-2020-3-19-24/